



UDK:004.8:351/354

Ra'no ABDVAITOVA,
O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi
E-mail: abduvaitovaran865@gmail.com

PhD G.Isanova taqrizi asosida

MARKAZIY OSIYONING YANGI DAVRDAGI GEOSIYOSIY O'RNI, O'ZBEKISTONNING TASHQI SIYOSATI VA XALQARO JARAYONLARDAGI ISHTIROKI

Annotatsiya

Ushbu maqolada yangi ming yillikda Markaziy Osiyo mintaqasida yuz berayotgan geosiyosiy jarayonlar, ularning xalqaro siyosatdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Mintaqaning tarixiy ildizlari, geostrategik mavqei, tabiiy resurslari hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikdagi roli yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida BMT, Yevropa Ittifoqi, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti va Yevroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyatidagi faol ishtiroki alohida o'rganiladi. Maqolada Markaziy Osiyoning global xavfsizlik, iqtisodiy integratsiya va sivilizatsiyalararo aloqalardagi o'rni chuqur tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, geosiyosat, O'zbekiston, xalqaro munosabatlar, BMT, ShHT, Yevropa Ittifoqi, xavfsizlik, integratsiya.

THE GEOPOLITICAL ROLE OF CENTRAL ASIA IN THE NEW ERA, UZBEKISTAN'S FOREIGN POLICY AND PARTICIPATION IN INTERNATIONAL PROCESSES

Annotation

This article examines the geopolitical processes taking place in Central Asia in the new millennium and their role and significance in the international relations system. It analyzes the historical roots, geostrategic position, and natural resources of the region, as well as Uzbekistan's active participation in international organizations such as the UN, the European Union, the Shanghai Cooperation Organization, and the Eurasian Economic Community. The study highlights the importance of Central Asia in global security, economic integration, and intercivilizational cooperation.

Key words: Central Asia, geopolitics, Uzbekistan, international relations, UN, SCO, European Union, security, integration.

ГЕОПОЛИТИЧЕСКАЯ РОЛЬ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В НОВУЮ ЭПОХУ, ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА И УЧАСТИЕ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ПРОЦЕССАХ

Аннотация

В данной статье рассматриваются геополитические процессы, происходящие в Центральной Азии в новом тысячелетии, их роль и значение в системе международных отношений. Анализируются исторические корни региона, его геостратегическое положение, природные ресурсы, а также участие Узбекистана в международных организациях, таких как ООН, Европейский Союз, Шанхайская организация сотрудничества и Евразийское экономическое сообщество. В работе акцентируется внимание на значении Центральной Азии в обеспечении глобальной безопасности, экономической интеграции и межкультурных связей.

Ключевые слова: Центральная Азия, геополитика, Узбекистан, международные отношения, ООН, ШОС, Европейский Союз, безопасность, интеграция.

Kirish. XXI asr boshlaridan boshlab Markaziy Osiyo mintaqasi dunyo geosiyosiy xaritasida tobora muhim o'rin egallay boshladi. Bu hududning strategik joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi, hamda yirik davlatlar manfaatlarining to'qnashgan nuqtasi sifatidagi o'rni uni jahon siyosatining diqqat markaziga aylantirdi [1]. O'zbekiston esa bu mintaqaning markazida joylashgan, demografik, madaniy va siyosiy jihatdan yetakchi davlat sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston o'z tashqi siyosatini "milliy manfaatlar ustuvorligi" tamoyiliga asoslab qurdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida esa mamlakatning tashqi siyosiy konsepsiyasi tubdan yangilandi — ochiqlik, hamkorlik va mintaqaviy barqarorlik ustuvor yo'nalishlarga aylandi [2]. Bu yondashuv nafaqat ichki modernizatsiya, balki xalqaro nufuzni mustahkamlash jarayoniga ham xizmat qilmoqda. Markaziy Osiyoning geosiyosiy ahamiyati faqat tabiiy boyliklarda emas, balki uning transport-logistik salohiyati, energetika yo'nalishlari va "Sharq-G'arb" hamda "Shimol-Janub" o'qlaridagi bog'lovchi nuqta sifatidagi o'rnida

namoyon bo'ladi [3]. Shu sababli, mintaq bugungi kunda nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va xavfsizlik jihatlaridan ham global kuchlar diqqat markazida turibdi.

Metodlar: Mazkur tadqiqotda Markaziy Osiyo mintaqasining geosiyosiy o'rni va O'zbekiston tashqi siyosatining zamonaviy tendensiyalarini ilmiy tahlil qilish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot nazariy asosini xalqaro munosabatlar nazariyasi, geosiyosiy yondashuvlar hamda mintaqaviy integratsiya konsepsiyalarining asosiy tamoyillari tashkil etadi. Shu bilan birga, komparativ tahlil, kontent-analiz, va siyosiy realizm metodlaridan foydalanildi [4].

Birinchidan, komparativ tahlil orqali Markaziy Osiyodagi davlatlarning tashqi siyosiy yo'nalishlari o'zaro solishtirildi. O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonning mintaqaviy hamkorlikdagi pozitsiyalari, iqtisodiy aloqalari va xavfsizlik siyosatlari qiyosiy tahlil qilindi. Ikkinchidan, kontent-analiz usuli yordamida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga

murojaatnomalari, tashqi siyosat konsepsiyasi, hamda xalqaro tashkilotlardagi chiqishlari o'rganildi [5]. Shu orqali mamlakat tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari – mintaqaviy integratsiya, iqtisodiy barqarorlik va tinchlikni ta'minlash kabi masalalar aniqlab olindi. Uchinchidan, siyosiy realizm nazariyasi asosida yirik davlatlarning (Rossiya, Xitoy, AQSh) Markaziy Osiyodagi manfaatlarini tahlil qilindi. Bu davlatlarning mintaqadagi harbiy, iqtisodiy va diplomatik faolligi O'zbekiston tashqi siyosatining muvozanatli strategiyasiga qanday ta'sir etayotganiga baho berildi [6].

Tadqiqot davri sifatida 2016–2024-yillar oralig'i tanlandi. Chunki aynan shu davrda O'zbekiston tashqi siyosatida faol yangilanish bosqichiga o'tdi. Mintaqaviy diplomatiya faol bo'lib, qo'shni davlatlar bilan chegara masalalari, suv resurslarini boshqarish va savdo integratsiyasi bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Bundan tashqari, statistik tahlil orqali BMT, ShHT, va Yevropa Ittifoqi bilan O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik hajmi, sarmoyaviy oqimlar va tashqi savdo aylanmasi o'rganildi. Rasmiy ochiq manbalardan olingan ma'lumotlar yordamida O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi ijobiy o'sish dinamikasi aniqlanib, u mintaqaning umumiy geosiyosiy mustahkamligiga hissa qo'shayotgani qayd etildi [7]. Ushbu metodlarning kompleks qo'llanilishi tadqiqot natijalarini ilmiy asoslash va obyektiv xulosalarga kelish imkonini berdi.

Natijalar: Tadqiqot natijalariga ko'ra, Markaziy Osiyo mintaqasida so'nggi yillarda sezilarli geosiyosiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu o'zgarishlar, bir tomondan, global kuchlar o'rtasidagi raqobat bilan, ikkinchi tomondan, mintaqadagi davlatlarining ichki siyosiy modernizatsiyasi bilan bog'liq [8]. O'zbekiston tashqi siyosatida 2016-yildan boshlab ochiqlik, pragmatizm va mintaqaviy hamkorlik tamoyillari asosiy yo'nalishga aylandi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari natijasida O'zbekiston tashqi siyosatida “yangi qo'shnichilik” tamoyilini ilgari surdi. Natijada Qozg'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan diplomatik aloqalar yangi bosqichga ko'tarildi. Masalan, 2017–2023-yillar oralig'ida Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi savdo aylanmasi 2 baravarga oshdi [9]. O'zbekiston tashqi savdosida mintaqadagi davlatlarining ulushi 8 foizdan 15 foizga yetdi. Bu ko'rsatkich Markaziy Osiyoda iqtisodiy integratsiya jarayonlarining chuqurlashayotganidan dalolat beradi. Xavfsizlik sohasida esa O'zbekiston ShHT, MDH va BMT doirasida faol ishtirok etmoqda. Jumladan, ShHT doirasida 2022-yilda Toshkentda o'tkazilgan sammitda mintaqaviy barqarorlik, terrorizmga qarshi kurash va transport yo'laklarini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi [10]. O'zbekistonning xalqaro nufuzini oshirgan muhim omillardan biri — BMT Bosh Assambleyasida ilgari surilgan tashabbuslardir. Xususan, “Markaziy Osiyo: umumiy kelajak sari” rezolyutsiyasi (2018) mintaqaviy birdamlik va barqaror rivojlanish uchun muhim siyosiy asos bo'ldi [11]. Shuningdek, O'zbekistonning tashqi siyosiy faolligi natijasida mintaqada energetika diplomatiyasi kuchaydi. “TAP-500”, “CASA-1000”, “TITR” kabi transchegaraviy loyihalar mamlakatning geosiyosiy ahamiyatini yanada oshirdi [12]. O'zbekistonning tashqi siyosati nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham muvozanatli yo'nalishda olib borilmoqda. Mamlakat BMT, YEXHT, Islom Hamkorlik Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, ShHT va YEOII kabi xalqaro institutlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirgan. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi bilan 2021-yilda imzolangan “Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim” yangi bosqichni boshlab berdi [13]. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy maqsadi — mintaqaviy tinchlik va iqtisodiy integratsiyani ta'minlash, xalqaro hamkorlik orqali milliy manfaatlarini himoya qilishdir. Bu strategiya mamlakatning

xalqaro nufuzini mustahkamlab, uni Markaziy Osiyodagi yetakchi siyosiy markazlardan biriga aylantirdi.

Muhokama: Markaziy Osiyo mintaqasi tarixan buyuk imperiyalar chorrahasida joylashgan bo'lib, hozirgi kunda ham jahon siyosatining muhim markazlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda [14]. Geosiyosiy nuqtayi nazardan, bu hududning o'ziga xosligi shundaki, u energetika, transport va suv resurslari bilan bog'liq strategik ahamiyatga ega. Shu bois, mintaqada nafaqat ichki siyosiy jarayonlar, balki global kuchlar o'rtasidagi raqobat markaziga ham aylangan. Hozirgi davrda Markaziy Osiyoda Rossiya, Xitoy, AQSh va Yevropa Ittifoqi manfaatlarini to'qnash kelmoqda. Har bir geosiyosiy kuch mintaqada o'z ta'sir doirasini kengaytirish, iqtisodiy, energetik va transport loyihalari orqali barqaror pozitsiyani egallashga intilmoqda [15]. Rossiya Federatsiyasi an'anaviy tarzda mintaqani o'zining strategik ta'sir hududi deb biladi. Shu sababli, Moskva Markaziy Osiyo davlatlari bilan harbiy-texnik hamkorlikni rivojlantirishga e'tibor qaratadi. Xususan, O'zbekiston 2020-yildan boshlab Rossiya bilan qo'shma harbiy mashg'ulotlar o'tkazishni yo'lga qo'ydi va harbiy akademiyalar o'rtasida kadrlar tayyorlash bo'yicha bitim imzolandi [16]. Xitoy esa o'zining “Bir makon – bir yo'l” tashabbusi orqali mintaqada iqtisodiy va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirmoqda. “Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston” temir yo'li, “Toshkent – Andijon – Urumchi” avtomobil yo'nalishi kabi loyihalar Markaziy Osiyo davlatlarining global savdo zanjirlariga integratsiyasini ta'minlamogda [17]. AQShning mintaqadagi strategiyasi esa, asosan, xavfsizlik va energetika sohasiga qaratilgan. 2019-yildan buyon “C5+1” formati orqali AQSh Markaziy Osiyo davlatlari bilan mintaqaviy xavfsizlik, ekologiya va ta'lim sohasida hamkorlikni kengaytirmogda [18]. O'zbekiston ushbu murakkab geosiyosiy muhitda “muvozanatli tashqi siyosat” yuritmoqda. Ya'ni, mamlakat turli geosiyosiy markazlar bilan hamkorlikni munosib saqlash, hech bir blokka kirmaslik tamoyiliga asoslanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020-yilgi Oliy Majlisga murojaatida “O'zbekiston hech bir harbiy-siyosiy blokning a'zosi bo'lmaydi, ammo barcha bilan ochiq hamkorlik qiladi” deb ta'kidlagan edi [19].

Shuningdek, O'zbekiston tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri mintaqaviy integratsiya va sivilizatsiyalararo muloqotni rivojlantirish hisoblanadi. BMT doirasida ilgari surilgan “Markaziy Osiyo – umumiy kelajak sari” tashabbusi, shuningdek, Toshkentda o'tkazilgan “Afg'oniston: tinchlik yo'lida mintaqaviy hamkorlik” xalqaro konferensiyasi mamlakatning mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashdagi yetakchi rolini namoyon etdi [20].

Iqtisodiy jihatdan esa, O'zbekistonning “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi mintaqaviy raqamli integratsiyani kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish, transchegaraviy elektron savdo tizimlarini joriy etish mintaqaning iqtisodiy mustaqilligini oshirmogda. Shu bilan birga, O'zbekistonning tashqi siyosatida ayrim muammolar ham mavjud. Eng avvalo, transport-logistika infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmagani, energetika eksporti yo'nalishlarining cheklanganligi va suv resurslarini boshqarishdagi kelishmovchiliklar mintaqaviy hamkorlikka to'sqinlik qilmoqda. Biroq, bu muammolar diplomatik vositalar bilan bosqichma-bosqich hal etilmoqda.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning tashqi siyosati uch asosiy yo'nalishga tayangan:

Mintaqaviy diplomatiya — qo'shni davlatlar bilan hamkorlikni chuqurlashtirish;

Global muvozanat — yirik kuchlar o'rtasida neytral, ammo faol siyosat yuritish;

Xalqaro integratsiya — xalqaro tashkilotlarda faol ishtirok etish va tashabbuslarni ilgari surish.

Bu strategiya mamlakatni nafaqat Markaziy Osiyo, balki global miqyosda ham nufuzli siyosiy subyekt sifatida shakllantirmoqda.

Xulosa: Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo yangi ming yillikda jahon geosiyosiy tizimining ajralmas bo'lagiga aylandi. Mintaqa tabiiy resurslarga, tranzit salohiyatiga va strategik joylashuvga ega bo'lgani sababli, global kuchlar manfaatlarini kesishadigan hudud sifatida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston esa mintaqaning siyosiy va iqtisodiy markazlaridan biri sifatida geosiyosiy jarayonlarda faol ishtirok etmoqda. Mamlakat tashqi siyosati pragmatik, ochiq va muvozanatli yo'nalishga ega bo'lib, mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonning xalqaro maydondagi faoliyati quyidagi asosiy yo'nalishlarda ijobiy samara bermoqda:

qo'shni davlatlar bilan diplomatik ishonch muhitini mustahkamlash;

BMT va ShHT kabi xalqaro tashkilotlarda tashabbuskorlikni oshirish;

iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish orqali mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash.

Shu bilan birga, kelgusida ayrim ustuvor yo'nalishlarni yanada takomillashtirish zarur, xususan — transport-logistika infratuzilmasini kengaytirish, axborot xavfsizligini mustahkamlash va raqamli diplomatiyani rivojlantirish. Mintaqaviy diplomatiya doirasida O'zbekiston "Markaziy Osiyo–Yevropa" strategik forumini tashkil etish tashabbusini ilgari surishi mumkin. Transport infratuzilmasini rivojlantirish uchun "Transkaspiy yo'lagi" loyihasida faolroq ishtirok etish lozim. Axborot xavfsizligi sohasida mintaqaviy markaz tashkil etish zarur, bu raqamli mustaqillikni ta'minlaydi. Ilmiy diplomatiyani rivojlantirish – universitetlar, ilmiy markazlar o'rtasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. Sun'iy intellekt va raqamli siyosat sohasida xalqaro tajriba almashinuvi yo'lga qo'yish.

Chunki, O'zbekistonning tashqi siyosiy salohiyati va Markaziy Osiyoning global miqyosdagi nufuzini yanada o'ttirish asosiy maqsadlarimizdandir.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 45–47.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni "Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida".
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 112–115.
4. Nye, J. Soft Power: The Means to Success in World Politics. – New York: PublicAffairs, 2004.
5. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga murojaatnoma. – Toshkent, 2022.
6. Brzezinski Z. The Grand Chessboard: American Primacy and Its Geostrategic Imperatives. – New York: Basic Books, 1997.
7. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy ma'lumotlari, 2024.
8. Huntington S. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – New York: Simon & Schuster, 1996.
9. Markaziy Osiyo iqtisodiy forumi ma'lumotlari, Samarqand, 2023.
10. Shanghai Cooperation Organization. Summit Declarations 2022. – Samarkand, 2022.
11. UN Resolution "Central Asia: Toward a Common Future", New York, 2018.
12. CASA-1000 Project Documentation, Asian Development Bank, 2021.
13. EU-Uzbekistan Enhanced Partnership Agreement, Brussels, 2021.
14. Kissinger H. World Order. – New York: Penguin Press, 2014.
15. Eurasian Development Bank Annual Report, 2023.
16. O'zbekiston va Rossiya harbiy hamkorlik to'g'risidagi bitimi, 2020.
17. Belt and Road Initiative Data Portal, 2024.
18. U.S. State Department, C5+1 Joint Statement, 2023.
19. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga murojaatnomasi, 2020.
20. BMT Arxivi: "Afg'oniston: Peace Process and Regional Cooperation", Toshkent, 2018.